

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI**

**ASADOVA AZIZA OLIMJONOVNA**

**HUDUDLARDA NOSTALGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING  
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
in economic sciences**

**Asadova Aziza Olimjonovna**

Hududlarda nostalgik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish .....5

**Асадова Азиза Олимжоновна**

Совершенствование организационно-экономического механизма развития ностальгического туризма в регионах.....27

**Asadova Aziza Olimjonovna**

Improvement of the organizational-economic mechanism of the nostalgic tourism in the regions .....53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....57

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI**

**ASADOVA AZIZA OLIMJONOVNA**

**HUDUDLARDA NOSTALGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING  
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5284.2.PhD/Iqt1282 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (resume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.silkroad.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Mansurova Nargiza Shamsidinovna</b> iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Mirzayev Abdullajon Topilovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor <b>Mardonov Baxodir Baxronovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.I.145.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «30»-avgust soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni ko'chasi, 17-uy. Tel.: (99866) 240-67-68; Faks: (998 66) 231-12-53, e-mail: info@univ-silkroad.uz

Dissertatsiya bilan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (36-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni ko'chasi, 17-uy. Tel.: (99866) 240-67-68; Faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: info@univ-silkroad.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « \_\_\_\_ »- avgust kuni tarqatildi.  
(2025- yil « \_\_\_\_ »- avgustdagi 36-raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.A.Eshtayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**X.I.Turdibekov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n., dotsent

**B.Sh.Safarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda turizm bozoridagi beqarorliklar va globallashtirish sharoitida madaniy o'zlikka bo'lgan ehtiyojning ortib borishi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida hududlarda nostalgik turizmni rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism) va ReportLinker statistik platformasi ma'lumotlariga ko'ra, "nostalgik turizm jahon madaniy turizmining 8% dan 12% gacha bo'lgan qismini tashkil etadi, bu esa yiliga taxminan 95–140 million sayyohga teng. Ushbu ulush har yili o'rtacha 4–6% ga oshib bormoqda"<sup>1</sup>. Shu jihatdan, mavjud global turizm tendensiyalari hamda sayyohlarning xulq-atvorida nostalgiya omiliga asoslangan ehtiyojning ortib borishi hududlarda nostalgik turizmni rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu borada, mazkur yo'nalishni tashkiliy-iqtisodiy jihatdan samarali tashkil etish, infratuzilma va xizmatlar tizimini takomillashtirish, davlat organlari, biznes subyektlari hamda mahalliy jamoalar o'rtasida muvofiqlikni ta'minlash va madaniy meros resurslardan barqaror foydalanishni rag'batlantirish orqali hududiy turizm salohiyatini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda nostalgik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, hududlarda xalqaro talablarga javob beradigan modellarni ishlab chiqish hamda turli millat diasporalari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan metodologiyani rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada madaniy moddiy va nomoddiy merosga bo'lgan qiziqish hamda tarixiy xotirani tiklash jarayonlarini o'rganish, turistik hududlarni boshqarish modellarini tahlil qilish, davlat-xususiy sherikchilikning samarali shakllarini ishlab chiqish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan vositalarni aniqlash, mahalliy iqtisodiyot va ijtimoiy birdamlikka ta'sirini baholovchi integral ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, nasabiy va etnik turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlar uchun moslashuvchan strategiyalarni shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Shu bois, iqtisodiyot, madaniyatshunoslik, turizmshunoslik va raqamli texnologiyalarni birlashtirgan zamonaviy fanlararo yondashuvlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda nostalgik turizmni rivojlantirish bo'yicha mamlakatning madaniy va tarixiy merosini saqlash hamda ommalashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi. "Haligacha Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabzga bormagan oilalar ko'pligi qayd etildi. Shu bois, har oyning bitta shanba va yakshanbasi – "oila va mehnat jamoasi bilan sayohatga chiqish" kuni, deb e'lon qilindi. Umuman, bunday imkoniyatlar evaziga bu yil 15 million turistni jalb qilish va eksportni 4 milliard dollarga yetkazish lozim"<sup>2</sup>. Ushbu vazifalarni hal etishda davlat idoralari, xususiy biznes va mahalliy jamoalar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlaydigan samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqish, interaktiv platformalar va tarixiy joylarga virtual sayohatlar yaratish

<sup>1</sup> <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/heritage-tourism-market-report>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 9-apreldagi "Turizm va investitsiya masalalari muhokama qilindi". <https://president.uz/oz/lists/view/8049>

maqsadida raqamli texnologiyalarni joriy etish, salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda infratuzilmani faol rivojlantirish, xizmatlar sifati va transport imkoniyatlarini yaxshilash, turizm sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish va ta'lim dasturlari orqali kadrlar salohiyatini shakllantirish, "O'zbekiston – ikkinchi uyim" brendini xalqaro turistik bozorlarida noyob yo'nalish sifatida ilgari surish, diasporani va xorijiy sayyohlarni jalb qilish, madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash hamda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish kabi usullar orqali nostalgik turizmni rivojlantirishning istiqbolli parametrlarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2025-yil 19-martdagi PF-52-son "Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari hamda 2018-yil 25-oktabrdagi PQ-3982-son "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023-yil 27-iyul PQ-238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2024-yil 18-sentabrdagi Vazirlar Mahkamasining 582-son "Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Turizm sohasini fundamental va empirik tadqiqotlar asosida o'rganib, qisman turizmning yangi turlaridan biri bo'lgan nostalgik turizmning paydo bo'lish tarixi, nostalgik turizmni rivojlantirishda yangi turlarni ishlab chiqish, moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish, joylarda nostalgik turizm bo'yicha infratuzilmani yaxshilash va nostalgik turizm resurslaridan foydalanishning alohida muammolarini o'rganishda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Russell Dale W., Abeyta A., Batcho K.I., Dodd E.,

Beck J., Kennedy F., Kim H., Marchegiani C., Butuzov A.G., Morozov M.M., Melnikova A.V., Morozova N.S., Belyanskiy V.<sup>3</sup> va boshqalar.

O'zbekistonda turizm sohasini chuqur o'rganish, uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini baholash, turizmning yangi yo'nalishlarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish, shuningdek, ularning natijalarini amaliyotga joriy etish borasida To'xliyev N.T., Tuxliyev I.S., Pardayev M.Q., Navro'z-zoda B.N., Xamidov O.X., Eshtayev A.A., Safarov B.Sh., Aliyeva M.T., Norchayev A.N., Ibragimov N.S., Matyakubov U.R., Mirzayev A.T., Mardonov B.B., Norkulova D.Z., Mansurova N.Sh.<sup>4</sup> va boshqa iqtisodchi olimlar muhim ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda mamlakatimizda, ayniqsa, hududlar miqyosida nostalgik turizmni barqaror rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqishga doir ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Mavjud ilmiy izlanishlarda ushbu yo'nalishning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jihatlari yetarlicha chuqur o'rganilmagan bo'lib, ularni tizimli asosda tahlil qilish hamda amaliyotga joriy etishga xizmat qiluvchi yondashuvlar ishlab chiqilishiga muhtoj. Shu bois, hududlarda nostalgik turizmni rivojlantirishga qaratilgan kompleks ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish zarurati tobora ortib

---

<sup>3</sup> Russell Dale W. Nostalgic tourism // *Journal of Travel & Tourism Marketing*. Vol. 25(2). 2008.; Abeyta A.A., Routledge C., Kaslon S. Combating loneliness with nostalgia: Nostalgic feelings attenuate negative thoughts and motivations associated with loneliness // *Frontiers in Psychology*, 11, 1219, 2020.; Batcho K.I. Nostalgia: A psychological perspective.// *Perceptual and Motor Skills*, 80(1), 131–143, 1995.; Dodd E., Ismail S., Christopher G., Wildschut T., Sedikides C., Cheston R. Nostalgic conversations: The co-production of an intervention package for people living with dementia and their spouse. *Dementia// The International Journal of Social Research and Practice*. 21 (2), 489–502, 2021.; Kennedy P. F. and Baker S.M. Death by Nostalgia: A Diagnosis of Context-Specific Cases.// *Advances in Consumer Research* 21:169–74. 1994.; Beck, J. 2013. When Nostalgia Was a Disease.// *The Atlantic*, August 14.; Kim H. Research Note: Nostalgia and Tourism // *Tourism Analysis* 10 (1): 85–88, 2005.; Marchegiani C. and Phau I. Development and Validation of the Personal Nostalgia Scale.// *Journal of Marketing Communications* 19 (1): 22–43. 2013.; Бутузов А.Г. Этнокультурный туризм // Учебное пособие. — М.: КНОРУС, 2013. — 248 с. ISBN 978-5-406-01430-1.; Морозов М.М. Информационное обеспечение процесса управления в туризме. Вестник Российского нового университета. Серия: Человек и общество // Вестник Российского нового университета. Серия: Человек и общество. 2018 год; (1): 142-146. (На русск., аннотация на англ.); Мельникова А.В. Особенности туристской инфраструктуры // *Экономика и социум*. (1-2):203-205, 2021.; Морозов М.А., Морозова Н.С., Белянский В., Белянская О. Развитие туризма на российских территориях: конкурентоспособность, эффективность и устойчивость.// *Журнал экологического менеджмента и туризма*. 8(4):875-881. 2017.; Белянский В. Авиатранспортные туристические услуги в России и за рубежом // *Журнал Российское предпринимательство*, № 12 (2), 2011.;

<sup>4</sup> Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: Гос. Науч. Изд. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 386 с.; Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. // Т.: «Fan va texnologiya», 2014, 328 bet.; Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. // Samarqand: SamISI, 2006. -137 b.; Xamidov O.X. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. // Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. // S.: SamISI, 2017. - 260 b.; Eshtayev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. // Т.: «Fan», 2011. – 280 b.; Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya. //Т.: Fan va texnologiya, 2016. Т. 1. №1. 184 b.; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari: iqt.fan.dok. diss. Avtoref. // S.: SamISI, 2019. – 77 b.; Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. Iqt. fan. dok...diss. avtoref. // Toshkent-2021. – 78 b.; Ibragimov N.S. Destination marketingda raqobat turlari va raqobatbardoshlikning 6a modeli. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar elektron jurnali. №3, may-iyun, 2015-yil.; Mirzayev A.T. Оценка влияния факторов, влияющих на обеспечение конкурентоспособности выпускников организаций высшего образования. //Журнал “Мир научных новостей в науке”, стр 79-102, 2024; Mardonov B.B. Xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish// DSc diss., Sam.:2024. – 223 bet.; Norkulova D.Z. va boshqalar. Turizm rivojlanishining rasmiyatchilik, o'quv qo'llanma, 2020; Mansurova N.Sh. Barqaror turizmni samarali rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya. S.: “Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti nashriyoti, 2025. – 230 b.

bormoqda. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan izlanishlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi hamda mavzuni mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqish dolzarbligini asoslaydi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining №SRITU-18/02 – “Turizm va madaniy meros sohasini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** hududlarda nostalgik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

“nostalgik turizm” tushunchasining mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda mualliflik qarashlarini shakllantirish;

nostalgik turizm tushunchasining asosiy tamoyillari va o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilib, uni tasniflash;

nostalgik turizmni rivojlantirishning xorij tajribasini tadqiq etish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

hududlarda nostalgik turizmni rivojlantirishning hozirgi holatini tahlil qilish va amaliy takliflar ishlab chiqish;

nostalgik turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy omillarini tahlil qilish;

hududda nostalgik turizmni rivojlantirish tendensiyalarini aniqlash;

hududlarda nostalgik turizmni rivojlantirishning davlat-xususiy sherikchilik modelini takomillashtirish;

iqtisodiy-matematik usullar yordamida nostalgik turizmga ta‘sir etuvchi ahamiyatli omillarni tahlil etish;

nostalgik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;

hududda nostalgik turizmni tashkil etish asosida turistlarga yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishning istiqbolli parametrlarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Samarqand viloyatida turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** hududlarda nostalgik turizmni rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, taqqoslash, tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, ijtimoiy so‘rovnomma, statistik, PEST tahlil, SWOT tahlili, iqtisodiy-matematik usullar, jumladan, regression tahlil va istiqbolli bashoratlash kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nostalgik turizm ishtirokchilarini yanada ko‘proq jalb etish, hududlarda kirish turizmini rivojlantirish yo‘nalishida Navro‘z bayrami va Mustaqillik kuni arafasida xorijlik vatandoshlar uchun “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat” va “O‘zbekistonda Navro‘z” nomli maxsus turpaketlar ishlab chiqish asosida “O‘zbekiston – ikkinchi uyim” maxsus arzonlashtirilgan turmahsulotini tayyorlash bo‘yicha takliflar asoslangan;

hududlarning nostalgik turizm resurslari va mavjud turistik salohiyatini namoyon etish, ishtirokchilar bilan aloqani mustahkamlash maqsadida respublikadagi turizm namoyishi obyektlarini o‘zaro bog‘lovchi “Tourist routes” turistik yo‘nalishlarning yagona reyestrini yuritish tartibini ishlab chiqish asosida “nostalgytour.uz” platformasini yaratish bo‘yicha takliflar dalillangan;

umummilliy totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan har yili “O‘zbekiston – yagona Vatan!” shiori ostida xorijdagi vatandoshlar, diaspora vakillari turizmini rivojlantirish kabi masalalarda o‘zaro fikr-mulohaza almashish maqsadida “Xorijdagi vatandoshlar orqali bilimlarni transfer qilish” (TOKTEN) dasturi asosida ekspertlik va ilmiy doiralar vakillari hisoblangan xorijdagi vatandoshlarning doimiy muloqoti ko‘rinishida “Uz Global Think” infoturini tashkil etish bo‘yicha takliflari asoslangan;

hududda nostalgik turizmni samarali rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarning tahlili asosida xorijiy turistlar oqimining 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

xorijiy diasporalarni turizm jarayonlariga jalb etish va ularning O‘zbekiston bilan ijtimoiy-madaniy aloqalarini mustahkamlash, xorijdagi vatandoshlar uchun maxsus arzonlashtirilgan turpaketlarni taklif etish, ularni milliy qadriyatlar, tarixiy meros va an’anaviy bayramlar bilan yaqindan tanishtirishga qaratilgan “O‘zbekiston – ikkinchi uyim” turmahsuloti ishlab chiqilgan;

nostalgik turizmni rivojlantirishda, unga bilvosita ta’sir qiluvchi global va hududiy tashqi siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va texnologik omillarni tizimli baholash maqsadida PEST tahlili asosida o‘ziga xos model ishlab chiqilgan;

hududning turizm salohiyatini oshirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini optimallashtirish hamda barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida SWOT tahlil amalga oshirilgan holda innovatsion rivojlanish usuli ishlab chiqilgan;

hududlarda nostalgik turizmni barqaror rivojlantirish, nostalgik turizm resurslaridan samarali foydalanish, mavjud infratuzilmani takomillashtirish va xorijiy hamda mahalliy investorlarni jalb etish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali madaniy merosni saqlash, marketing strategiyalarini kuchaytirish va turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish maqsadida hududlarda nostalgik turizmni rivojlantirishning davlat-xususiy sherikchilikni bosqichma-bosqich shakllantirish modeli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ilmiy ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasining rasmiy manbalaridan olinganligi, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN), Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism), Xalqaro turizm va sayohat kengashi (WTTC), Jahon bankining (WB) rasmiy ma’lumotlari manbalaridan foydalanilganligi, qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, shuningdek, tegishli xulosa va takliflarning

amalda sinovdan o'tkazilgani hamda natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan ma'qullangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati — mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida nostalgik turizmning tutgan o'rnini belgilash, ushbu yo'nalishni rivojlantirishning samarali yo'llarini asoslash, shuningdek, bu jarayonning metodologik asoslarini takomillashtirish va davlat qarorlarini qabul qilishda qo'llash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot natijalari nostalgik turizmni rivojlantirish uchun iqtisodiy-huquqiy, tashkiliy va metodologik-uslubiy asoslarni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy manba sifatida foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati nostalgik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish hamda sohaning jozibadorligini oshirish bo'yicha takliflardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tasarrufidagi tuzilmalar faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hududlarda nostalgik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

nostalgik turizm ishtirokchilarini yanada ko'proq jalb etish maqsadida hududlarda kirish turizmini rivojlantirish yo'nalishida Navro'z bayrami va Mustaqillik kuni arafasida xorijlik vatandoshlar uchun "O'zbekiston bo'ylab sayohat" va "O'zbekistonda Navro'z" nomli maxsus turpaketlar ishlab chiqish asosida "O'zbekiston – ikkinchi uyim" maxsus arzonlashtirilgan turmahsulotini tayyorlash bo'yicha asoslangan takliflari 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish hamda zarur shart-sharoitlarni yaratish" bo'yicha "Yo'l xaritasi"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2025-yil 11-iyuldagi 03-10-17-6231-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlarda turistik oqimning o'rtacha darajasi 17% ga oshgan;

hududlarning nostalgik turizm resurslari va mavjud turistik salohiyatini namoyon etish, ishtirokchilar bilan aloqani mustahkamlash maqsadida respublikadagi turizm namoyishi obyektlarini o'zaro bog'lovchi "Tourist routes" turistik yo'nalishlarning yagona reyestrini yuritish tartibini ishlab chiqish asosida "nostalgytour.uz" platformasini yaratish bo'yicha dalillangan takliflar 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish hamda zarur shart-sharoitlarni yaratish" bo'yicha "Yo'l xaritasi"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2025-yil 11-iyuldagi 03-10-17-6231-son dalolatnomasi). Mazkur taklif bo'yicha turizm infratuzilmasini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi tashrif buyuruvchilarning qoniqish darajasini 25% ga oshirish imkoniyatini yaratgan;

umummilliy totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan har yili “O‘zbekiston – yagona Vatan!” shiori ostida xorijdagi vatandoshlar, diaspora vakillari turizmini rivojlantirish kabi masalalarda o‘zaro fikr-mulohaza almashish maqsadida “Xorijdagi vatandoshlar orqali bilimlarni transfer qilish” (TOKTEN) dasturi asosida ekspertlik va ilmiy doiralar vakillari hisoblangan xorijdagi vatandoshlarning doimiy muloqoti ko‘rinishida “Uz Global Think” infoturini tashkil etish bo‘yicha asoslangan takliflari 2025-yil 19-martdagi PF-52-son “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi “Nazorat rejasiga” kiritilgan (Turizm qo‘mitasining 2025-yil 11-iyuldagi 03-10-17-6231-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida xorijdagi vatandoshlar va diasporalar vakillarining O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishi 15 foizga oshgan;

hududda nostalgik turizmni samarali rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarning tahlili asosida xorijiy turistlar oqimining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari Turizm qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan “2025-2030-yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o‘rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar” dasturi va “Yo‘l xaritalari”ga kiritilgan (Turizm qo‘mitasining 2025-yil 11-iyuldagi 03-10-17-6231-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida nostalgik turizmga bo‘lgan talabni aniqlash orqali mamlakatimiz hududlariga xorijiy turistlar sonining 10% ga oshishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 7 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 145 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt hamda predmeti shakllantirilgan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi hamda nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Nostalgik turizmni rivojlantirishning**

**nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlanib, unda “nostalgik turizm” tushunchasining mazmun va mohiyati atroflicha o‘rganilgan. Tadqiqotchilarning nostalgik turizmga bergan ta’riflari tahlil qilinib, ularning ilmiy qarashlari asosida muallif tomonidan nostalgik turizmning ta’rifi va tamoyillari ishlab chiqilgan. Shuningdek, nostalgik turizmning resurslar bazasi, turistik obyektlarining o‘ziga xos xususiyatlari, sayyohlarning asosiy motivatsion maqsadlari keng qamrovda tahlil qilingan. Nazariy-metodologik yondashuvlar asosida nostalgik turizmning turlari tasniflanib, ularning amaliy qo‘llanish imkoniyatlari aniqlangan. Nostalgik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha xorij tajribasi o‘rganilgan.

So‘nggi yillarda xalqaro sayohatlarning har o‘ninchisi aynan nostalgik motivlar asosida amalga oshirilganligi bois, hududlarda nostalgik turizmni barqaror rivojlantirish, uning izchil taraqqiyotini ta‘minlash hamda ushbu yo‘nalishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Nostalgik turizm – global turizm industriyasida shakllanayotgan yangi va istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lib, asosan, muhojirlarning yoki ularning yaqin qarindoshlarining ilgari yashagan hududlarga bo‘lgan hissiy bog‘liqligi asosida shakllangan. Ushbu tur sayohatchilarni o‘z ildizlari bilan bog‘laydi, tarixiy va shaxsiy xotiralarga qaytish imkonini beradi.

Mazkur turizm yo‘nalishi yuzasidan bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, ushbu sohaning ayrim nazariy va amaliy jihatlari hanuzgacha yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois, muallif tomonidan nostalgik turizmga quyidagi ilmiy ta‘rif taklif etildi: “Nostalgik turizm – bu sayohatchilarning jismoniy va ruhiy holatlarini tetiklantirish maqsadida, hayotiy sikli bilan bog‘liq sanalarda yuz bergan tarixiy voqealarga oid hududlarga turistik motivatsiya asosida amalga oshiriladigan sayohat hisoblanadi”<sup>5</sup>.

Nostalgik turizm mustaqil turistik yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lib, u o‘zining geografik yo‘nalganligi, sayyohlar qiziqishi, hamda jalb etuvchi resurslariga qarab bir nechta turlarga ajratiladi (1-jadval).

## 1-jadval


### Nostalgik turizmning tasnifi<sup>6</sup>

Geografik yo‘nalganligiga ko‘ra	Maqsadi va jalb etuvchi manbalariga ko‘ra	Muddati	Tashkiliy shakli
Xalqaro nostalgik turizm; mintaqaviy nostalgik turizm; ichki nostalgik turizm.	Qarindoshlarni ziyorat qilish; manzilli; voqeali; madaniy meros obyektlari (moddiy va nomoddiy); ritual; personaj bilan bog‘liq, gastronomik nostalgik turizm.	Qisqa muddatli (1-12 kungacha); o‘rta muddatli (1 oydan 3 oygacha); uzoq muddatli (6 oydan 1 yilgacha).	Tashkillash-tirilgan; tashkillash-tirilmagan.

<sup>5</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>6</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu tasnif nostalgik turizm turlarini tizimli o‘rganish, ularning xususiyatlarini aniqlash, strategik rejalashtirishni amalga oshirish hamda maqsadli auditoriyaga yo‘naltirilgan marketing yondashuvlarini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, nostalgik turizmga bo‘lgan qiziqishni shakllantiruvchi obyektlarni ya‘ni sayohatchilarda hissiy-motivatsion holatni yuzaga keltiruvchi asosiy manbalarni, sayohat maqsadlarini quyidagicha ajratish mumkin (1-rasm).



**1-rasm. Nostalgik turizm resurslarining turlari, o‘ziga xos xususiyatlari, sayohat maqsadlari va tamoyillari<sup>7</sup>**

Nostalgik turizm turistlarni jalb etuvchi omillarni aniqlash va ularning hissiy-motivatsion xususiyatlarini o‘rganish, ushbu turizm turini samarali tashkil etish va strategik rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turistlarda nostalgiya hissini uyg‘otuvchi resurslar tabiiy, inson va antropogen resurslarga ajratiladi. Ushbu resurslar mazmuniga ko‘ra, moddiy va nomoddiy guruhlariga ajratiladi. Moddiy obyektlar orqali bevosita vizual va fizik ta‘sir orqali hissiy aloqa yuzaga keladi. Nomoddiy obyektlar esa tovush va hid orqali shaxsiy xotiralarning

<sup>7</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

jonlanishiga sabab bo‘ladi. Ushbu yondashuv nostalgik turizm tajribasini chuqurlashtiradi, hududiy turizm resurslarining emotsional qiymatini oshiradi hamda turistik mahsulotlarni individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi.

Nostalgik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish hamda ularning amaliy yondashuvlaridan milliy sharoitga moslashtirilgan holda foydalanish nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot doirasida Isroilning “Taglit-Birthright Israel”<sup>8</sup>, “Masa Israel Journey”<sup>9</sup>, Xitoyning “Ajdodlar izidan”<sup>10</sup> va boshqa davlatlarning diasporalarni nostalgik turizmga jalb etish bo‘yicha amaliy tajribalari o‘rganildi. Mazkur dasturlar nafaqat diasporalarning o‘z vatani bilan aloqalarini mustahkamlashga, balki turizm oqimini barqaror ravishda oshirishga ham xizmat qiladi. Ushbu tajriba asosida O‘zbekiston sharoitida “O‘zbekiston – ikkinchi uyim” nomli dastur ishlab chiqilib, uni mamlakatimizda tatbiq etish tavsiya etildi.

Dissertatsiyaning **“Hududlarda nostalgik turizmning rivojlanish holati va tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobi doirasida hududlarda, xususan, Samarqand viloyati misolida nostalgik turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq muhim yo‘nalishlar chuqur o‘rganilgan. Unda ushbu turizm yo‘nalishining mavjud resurslari, ulardan foydalanish holati, shuningdek, rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahlil qilingan. Nostalgik turizmning mahalliy darajadagi salohiyatini aniqlash maqsadida so‘rovnoma o‘tkazilgan hamda PEST tahlil asosida Samarqand viloyatida mavjud imkoniyatlar va muammolar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, SWOT tahlil orqali ushbu hududda nostalgik turizmni barqaror rivojlantirishning kuchli va zaif tomonlari, tashqi tahdid va imkoniyatlar tahlili amalga oshirilgan. Amaliy natijalar asosida “Uz Global Think” infotur konsepsiyasi hamda “nostalgytour.uz” raqamli platformasini yaratish taklifi ishlab chiqilgan.

Nostalgik turizm ishtirokchilarining asosiy qismini diasporalar va vatandoshlar tashkil etgani bois, ularni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb etish har tomonlama foyda olib keladi. Xalqaro tajribaga asosan xorijdagi diasporalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va ularni nostalgik turizm bilan shug‘ullanish uchun hamkorlik qilishda TOKTEN (transfer of knowledge through expatriate nationals)<sup>11</sup> ya’ni “xorijdagi vatandoshlar orqali bilimlarni transfer qilish” dasturi muhim rol o‘ynaydi. Xorijda o‘z bilimlari va imkoniyatlari orqali yutuqlarga erishgan vatandoshlarni ta’lim, texnika-texnologiya, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarda hamkorlik qilishga undovchi dasturlarni tashkil etish orqali, chet eldan faqat turistlarni jalb qilishni emas, balki yoshlar uchun yangi bilimlarni egallash imkoniyatini shakllantiradi.

So‘nggi yillarda xorijdagi vatandoshlar orqali bilimlarni transfer qilish dasturi ommalashib, o‘z vatanidan uzoqda turli sohalarda yutuqqa erishgan insonlarni jalb etib, ular bilan muloqot qilish, davra suhbatlarini tashkil etish kabi tadbirlar keng tus olmoqda. Shu o‘rinda, tadqiqotimiz mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda

---


<sup>8</sup> <https://www.birthrightisrael.com/>

<sup>9</sup> <https://www.masaisrael.org/>

<sup>10</sup> <https://www.gqb.gov.cn>

<sup>11</sup> <https://www.tokten.ps/>

ekspertlik va ilmiy doiralar vakillari hisoblangan xorijdagi vatandoshlarning doimiy muloqotini yoʻlga qoʻyish zarurati yuzaga keladi. Mazkur ehtiyojdan kelib chiqib, «Uz Global Think» infoturini tashkil etish mexanizmi 2-rasmda keltirilgan.



**2-rasm. “Uz Global Think” infoturini tashkil etish mexanizmi<sup>12</sup>**


Bu orqali xorijdan kam mablag‘ evaziga ekspertlarni va ilmiy doira vakillarini jalb etibgina qolmasdan, xorijdagi vatandoshlarning mamlakatimizda bo‘layotgan islohotlarga nisbatan o‘z fikr va mulohazalarini erkin bayon qilishlariga imkoniyat yaratib, ularni o‘z milliy identitetini mustahkamlanishida, nostalgik his-tuyg‘ularini qayta uyg‘onishiga erishiladi.

Yuqorida taklif qilinayotgan yangi turdagi infoturistik tashriflar turistlar oqimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Bir tomondan, xorijda yashayotgan vatandoshlar ilmiy-akademik ishtirokchilar sifatida O‘zbekistonga tashrif buyuradilar, ikkinchi tomondan esa, ular orqali shakllanadigan tarmoq milliy sayyohlik ekotizimini ilmiy va innovatsion resurslar bilan boyitadi. Natijada, turizm sohasi ilm-fan va innovatsiyalar bilan integratsiyalashgan kompleks rivojlanish yo‘liga o‘tadi, xorijiy ekspertlar va diasporaning faol

<sup>12</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ishtiroki esa mamlakatning xalqaro turistik imidjini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur turdagi infoturlarni tizimli yo‘lga qo‘yish va ularning samaradorligini oshirish maqsadida “nostalgytour.uz” nomli raqamli platformani shakllantirish taklif etilmoqda. Ushbu platforma orqali xorijdagi vatandoshlar, ilmiy-akademik doira vakillari va turizm sohasi ishtirokchilari o‘rtasida doimiy axborot almashinuvi, hamkorlik aloqalari va tarmoq asosida muloqot yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, platforma hududlardagi nostalgik turizm resurslari va mavjud turistik salohiyatni namoyon etadi hamda ishtirokchilar bilan aloqalarni mustahkamlash maqsadida respublika bo‘yicha turizm obyektlarini o‘zaro bog‘lovchi “Tourist routes” turistik yo‘nalishlarning yagona reyestrini yuritadi. Platforma xorijdagi diasporalar uchun O‘zbekiston bo‘ylab tashkil etilgan nostalgik sayohat paketlariga onlayn ulanish, ularni tanlash, bron qilish va to‘lovni amalga oshirish imkoniyatini taqdim etadi (3-rasm).



**3-rasm. “Nostalgytour.uz” platformasining modeli<sup>13</sup>**

Platforma orqali xorijda istiqomat qiluvchi diasporalar infoturda ishtirok etish va “O‘zbekiston – ikkinchi uyim” arzonlashtirilgan turistik mahsulotlarni sotib olish, turistik sayohat grantlarida va turizm bo‘yicha turli tanlovlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Nostalgytour.uz platformasi O‘zbekistonning milliy tarixiy xotirasi, boy madaniy merosini va zamonaviy raqamli xizmatlarini birlashtirgan innovatsion turizm ekotizimiga aylanishi bilan ajralib turadi. Ushbu platforma O‘zbekistonni nafaqat geografik nuqtai nazardan, balki hissiy va tarixiy

<sup>13</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

jihatdan ham dunyoga yaqinlashtiradi. Shuningdek, u O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan raqamli texnologiyalarni rivojlantirish dasturlariga to‘liq mos keladi.

Samarqand viloyati boy tarixiy-madaniy merosga ega bo‘lib, xorijiy diasporalar uchun emotsional va tarixiy ahamiyatga ega hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatda mavjud madaniy obidalar, me‘moriy yodgorliklar, urf-odat va qadriyatlar nostalgik turizm uchun muhim resurslar sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur salohiyatdan samarali foydalanish, mavjud imkoniyat va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida SWOT tahlili amalga oshirildi. Ushbu tahlilni amalga oshirishda mavjud muammolar va imkoniyatlar PEST tahlili (makromuhit omillari) va so‘rovnomma (mikrodarajadagi real ishtirokchilar fikri) asosida o‘rganildi. Bu ikki tahlilning natijaviyligini oshirish maqsadida SWOT tahlil shakllantirildi (2-jadval).

## 2-jadval

### Samarqand viloyatida nostalgik turizm rivojlanishining SWOT tahlili<sup>14</sup>

<b>Kuchli tomonlar</b>	<b>Kuchsiz tomonlar</b>
viloyatda nostalgik turizmni rivojlantirish potentsiali yuqori va tarixiy obyektlar ko‘p; viloyatda turizm bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlashga yuqori e‘tibor qaratilgan; xilma-xil turizm turlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud; transport va logistika tarmog‘i yaxshi rivojlangan; Samarqand YUNESKO merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, brend sifatida taniqli; Samarqand o‘zbeklar, tojiklar, turklar, yahudiylar va boshqa ko‘plab diasporalarning tarixiy vatani.	nostalgik turizmni tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza shakllantirilmagan; nostalgik turizm obyektlarida infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan; nostalgik turizm bo‘yicha yetarli darajada turistik marshrutlar shakllantirilmagan; nostalgik turizm bo‘yicha investitsiyalar ko‘lami past; sayyohlarga xizmat ko‘rsatish sifati talab darajasida emas; servis xodimlarning “kvalifikatsiya darajasi” nostalgiya turiga tayyor emas.
<b>Imkoniyatlar</b>	<b>Tahdidlar</b>
mahalliy aholi va xorijdagi o‘zbek diasporalari orasida axborot almashinuvi yuzaga keladi; nostalgik turizm faoliyat subyektlari bo‘yicha tadbirkorlik rivojlanadi; xorijiy turistlar soni oshadi; turizm xizmatlar bozorida raqobat kuchayadi; chet eldagi samarqandlik diasporani jalb qilish va ularni “O‘zbekiston-ikkinchi uyim” dasturi va arzonlashtirilgan turistik paketlardan foydalanishga yo‘naltirish mumkin; nostalgytour.uz platformasi orqali turizmga jalb etililadi; gidlar va xizmat ko‘rsatish xodimlari malakasi oshirish mumkin.	ekologiyaga ta‘sir oshadi; kamchiliklar sabab xorijdagi diasporalarning qiziqishi so‘nishi mumkin; mahalliy aholi va tadbirkorlar orasida ushbu turga nisbatan ma‘lumot yetishmasligi hisobiga tushunmovchiliklar bo‘ladi; tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning sekin ishlashi yoki moliyaviy ta‘minot muammolari.

<sup>14</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Samarqand viloyatida nostalgik turizmni rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan SWOT tahlili ushbu yo'nalishdagi mavjud holatni tizimli baholash, ichki va tashqi omillarni aniqlash hamda strategik qarorlar qabul qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Tahlil natijalariga ko'ra, viloyatda mavjud tarixiy-madaniy meros, boy turistik resurslar, millatlararo tarixiy aloqalar va infratuzilmaning nisbatan rivojlanganligi kabi kuchli tomonlar mavjud bo'lib, ular mazkur hududni nostalgik turizm nuqtai nazaridan istiqbolli yo'nalishga aylantiradi. Shu bilan birga, sohada mavjud kamchiliklar, xususan, normativ-huquqiy asoslarning to'liq shakllanmaganligi, infratuzilma va xizmat ko'rsatish tizimining zaifligi, investitsiya hajmining pastligi va professional kadrlar yetishmovchiligi mavjud salohiyatdan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Bu esa sektorni rivojlantirishda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

SWOT tahlili orqali aniqlangan imkoniyatlar, jumladan, diasporalar bilan aloqa o'rnatish, yangi turistik mahsulotlar yaratish, platformalar orqali axborot almashinuvini yo'lga qo'yish, raqobatbardosh xizmatlar ko'lamini kengaytirish kabi jihatlari, mavjud resurslarni to'g'ri yo'naltirish orqali iqtisodiy va madaniy natijalarga erishish imkonini beradi. Shu bilan birga, ekologik yuklama, tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning sustligi va axborot tanqisligi kabi tahdidlarni oldindan aniqlash va bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rish talab etiladi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, SWOT tahlil viloyatda nostalgik turizmni strategik rejalashtirish, ustuvor yo'nalishlarni belgilash, resurslarni samarali boshqarish hamda tavakkalchiliklarni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Tahlil natijalariga asoslangan holda aniq maqsadli dasturlar ishlab chiqish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini tatbiq etish zarur.

Dissertatsiyaning **“Hududlarda nostalgik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish usullari”** deb nomlangan uchinchi bobida hududlarda nostalgik turizmni rivojlantirishning davlat va xususiy sherikchilik konseptual modelini takomillashtirish, “O'zbekiston bo'ylab sayohat” va “O'zbekistonda Navro'z” turistik paketlari asosida “O'zbekiston – ikkinchi uyim” arzonlashtirilgan turistik mahsulotlarni shakllantirish yo'nalishlari, nostalgik turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va nostalgik turizmni samarali rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning tahlili asosida xorijiy turistlar oqimining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nostalgik turizmning o'ziga xos jihatlaridan biri – sayohatchilarning muayyan tarixiy joylarga, shaxsiy xotiralarga, yaqinlari bilan bog'liq hududlarga bo'lgan ehtiyoji bilan ajralib turadi. Bu esa ushbu turizm turining an'anaviy infratuzilmadan tashqari, kengroq hissiy-ma'naviy qamrovga ega ekotizimni shakllantirish zaruratini talab qiladi. Shu sababli nostalgik turizmni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik ya'ni davlat-xususiy sherikchilik (DXSh) modelini joriy etilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu model orqali turizm sohasida mavjud bo'lgan resurslar, xizmatlar va infratuzilmaviy imkoniyatlar o'zaro muvofiqlashtirilgan holda ishlatiladi. Hududlarda nostalgik turizmni yanada

samarali rivojlantirishning davlat-xususiy sherikchilikni (DXSh) bosqichma-bosqich shakllantirish modelini taklif qilamiz (4-rasm).

Xususiy-xizmat sifatini ta'minlab, mehmonlarni kreativ yondashuvlar asosida yanada ko'proq jalb qiladi.	<b>1-bosqich. TASHKILIY-HUQUQIY MUHITNI MUSTAHKAMLASH (Davlat tomonidan)</b>			Davlat-soliq imkoniyatlarini kengaytirib, reklama bo'yicha qo'llab-quvvatlaydi.
	Nostalgik turizmni alohida yo'nalish sifatida qonunchilikda belgilash;	DXSh asosida turistik obyektlarni huquqiy hujjatlar bilan aniqlashtirish;	Xususiy sektorni jalb qilish uchun me'yoriy hujjatlar bazasini mustahkamlash;	
	<b>2-bosqich. TARIXIY VA MADANIY MEROSNI TIKLASHDA SHERIKCHILIK (DXSh asosida)</b>			
	Xususiy sektor-dizayn, restavratsiya kabi xizmatlar bilan shug'ullanadi.	Tabiiy obyektlar va madaniy merosni DXSh asosida rekonstruksiya qilish;	Davlat-yer ajratish, arxitektura muhofazasi, moliyaviy kafolat ta'minlaydi	
	<b>3-bosqich. XIZMATLARNI SHAKLLANTIRISH VA INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH (Xususiy sektor)</b>			
	Retro turizm bo'yicha tematik turistik paketlarni shakllantirish;	Shahar va qishloqlarda oilali turistlarni qabul qiladigan oilaviy korxonalarini tashkil etish;	Mahalliy tadbirkorlar va hunarmandlar bilan hamkorlik qilish;	
	<b>4-bosqich. MARKETING VA XALQARO TARG'IBOT STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISH (DXSh asosida)</b>			
	O'zbekistonning retro-turizm obyektlarini ommaga olib chiqish;	Xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirish;	Online targ'ibot ishlarini olib borish;	
	<b>5-bosqich. MOLIYALASHTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISH (DXSh asosida)</b>			
	Soliq imtiyozlari va davlat tomonidan qo'llab quvvatlash;	Nostalgik turizm bilan bog'liq kichik va o'rta korxonalarini rivojlantirish;	Barqaror turizm tamoyillariga rioya qilish;	


#### **4-rasm. Hududlarda nostalgik turizmni rivojlantirishning davlat-xususiy sherikchilikni bosqichma-bosqich shakllantirish modeli<sup>15</sup>**

Ushbu model davlat sektori va xususiy sheriklik o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Unda tashkiliy-huquqiy muhitni shakllantirishdan boshlab, tarixiy va madaniy merosni tiklash, xizmatlar tizimi va turizm infratuzilmasini rivojlantirish, marketing hamda xalqaro targ'ibot strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek, moliyalashtirish va iqtisodiy barqarorlikka erishish kabi asosiy bosqichlar ketma-ket mujassamlashtirilgan. Mazkur yondashuv davlat-xususiy sheriklik asosida nostalgik turizmni kompleks tarzda rivojlantirishga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur model davlat

<sup>15</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

va xususi sektor o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslanib, hissiy va madaniy qadriyatlarga asoslangan turizmni iqtisodiy mexanizmlar bilan uyg'unlashtiradi, boshqichma-bosqich tartibda huquqiy, tashkiliy va infratuzilmaviy jihatlar bilan uyg'unlashtiradi, hamda nostalgiya omiliga tayangan holda madaniy-tarixiy merosni saqlash, hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirish, investitsion muhitni faollashtirish va xalqaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu modelda madaniy merosni tiklash va xizmatlar bo'yicha sherikchilik faqat moliyaviy va infratuzilma investitsiyasini emas, balki restavratsiya, dizayn, marketing, oilaviy mehmonxona tizimi, hunarmandchilik, xizmatlar va mahsulotlar integratsiyasini o'z ichiga olishi bilan boshqa an'anaviy sherikchilikdan farq qiladi. Bu modelning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi qonunchilik, madaniy merosni tiklash, xizmatlarni tashkil etish, marketing, moliyalashtirish va iqtisodiy barqarorlikka erishishgacha bo'lgan yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab olib, nostalgik turizmni strategik rivojlanish modeli sifatida shakllantirishga asos bo'ladi.

Shu o'rinda, xorijdagi vatandoshlar bilan ijtimoiy-emotsional aloqalarni mustahkamlash va ularni turizm jarayonlariga faol jalb etish maqsadida "O'zbekiston – ikkinchi uyim" nomli maxsus arzonlashtirilgan turistik mahsulotni taklif etish maqsadga muvofiqdir (5-rasm). Mazkur turistik paket, ayniqsa, Navro'z va Mustaqillik bayramlari kabi yurtimiz uchun muhim bo'lgan ramziy sanalarda tashkil etilishi orqali mehmonlarda milliy faxr, tarixiy xotira va nostalgiya hissini uyg'otadi.



